



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



Kun nafasi



Samarqand shahridagi "Aziya metall prof" mas'uliyati cheklangan jamiyat (Samarqand metallurgiya zavodi)da rux va polimer qoplalami metall mahsulotlar ishlab chiqarish sexining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda ishtirok etgan viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev loyihaning ahamiyati va iqtisodiyotdagi o'rniiga to'xtaldi.

Ushbu korxona rux va polimer qoplalami tunuka, turli qalilnik va kenglikdagi o'ramali metall profilr, armatura, payvandlash similari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarmoqda. Bu loyihalor ishga tushirilishi natijasida 500 dan ortiq yangi ish o'rni yaratilib, qo'shimcha 3 trillion so'mlik ishlab chiqarish hajmlari amalga oshirildi. Hozirgi kunda qiyimti 196,3 million dollarlik po'lat eritish va qora metall ishlab chiqarish loyihasi doirasida ishlar olib borilmoxda. Ushbu loyihaning ishga tushirilishi natijasida 360 ming tonna qo'shimcha hajm yaratiladi.

Samarqand metallurgiya zavodi yiliga 1200 ming tonna rux va polimer bilan qoplangan metall mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega. Korxonada mavjud uskunalar yordamida qalilnigi 0,20-1,2 millimet rux bilan qoplangan va 0,28-0,70 millimet qalilnigidagi yuqori sifatlari polimer bilan qoplangan metall mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin.

- Hozirgi kunda Samarqand metall zavodida qoplamalni prokat ishlab chiqarish uchun yillik quvvati 120 ming tonna bo'lgan ikki dona uzlusiz ruxlash agregat (URZA) va ikki dona polimer qoplama agregat



## Rux va polimer qoplalami metall mahsulotlar ishlab chiqarish boshlandi

(PQKA) ishlaqmoqda, - deydi zavod direktori o'rinosi Baxtiyor Muxtorov. - Bo'yalgan prokat ishlab chiqarishga taxminan 90-95 ming tonna ruxlangan metall rulonlar yo'naltiriladi, qolgan hajm tovar mahsulotlari sifatida soltiladi. Amaldagi uzlusiz ruxlash agregatlarida assortiment bo'yicha imkoniyatlar 0,20-1,2 millimetni tashkil etsa, polimer qoplama agregatidagi bo'yagan prokataining maksimal qalilnigi hozirda 0,67 millimetni tashkil etadi.

Ma'lumot o'rinda aytish kerakki, ushbu yirik zavodda 2018-2022-yillarda xitoylik hamkorlar bilan birligida umumi qiymati 110 million dollarlik loyihalor amalga oshirilgan.

Dastlab 2018-yil dekabrdagi rux va polimer bilan qoplangan metall listlar tayyorlash boshlangan bo'lsa, ikkinchi bosqichda, 2021-yildan metall quvurlar va profilr ishlab chiqarish yo'lg'a qo'yildi. 2022-yil fevraldan issiq o'ramali metall listlar va qurilish uchun profilr ham ishlab chiqarilmoqda.

Ushbu mahsulotlar import o'rnni bosisha va eksportbopligi bilan ahamiyatli. Hozirda xomashyo Rossiyadan keltirilayotgan bo'lsa, keyingi yilda barcha mahsulotni shu yerning o'zida tayyorlash rejalashtiriladi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV,  
Baxtiyor MUSTANOV (surat).



## Samarqand - Penza hamkorligi rivojlanadi

Toshkent shahrida o'tkazilgan "INNOPROM. Markaziy Osiyo" V xalqaro sanoat ko'rgazmasi hamda Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari hududlarining I forumida ishtirok etgan Rossiyaning Penza viloyati gubernatori Oleg Melnichenko rahbarligidagi delegatsiya Samarqandga keldi.

O'tkazilgan uchrashuvda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev va Oleg Melchinko savdo-iqtisodiy, ilmiy-tehnikaviy va gumanitar sohalarda ikki tomonla hamkorlikni yanada rivojlantirish yuzasidan kelishuv imzoladi.

Shundan so'ng allomaning ilmiy mero-sini o'rganish hamda keng targ'ib qilish maqsadida konferensiya ishi shu'balarda davom etdi.

Anjuman yakunida Imam Moturidiy ilmiy mero-si va moturidiyliq ta'limotining mohiyati, bugungi kundagi ahamiyati yuzasidan o'zifikrlarini bildirdilar. Allomaning ahli sunna val jamaa e'tiqodiga asoslangan ta'limoti buzg'unchi g'oyalarga ilmiy asoslangan raddiyalarini berishda o'ta ahamiyatlari hisoblanib, musulmonlar

G'.HASANOV.

## "Zarmitan" da zamonaliviy muhandislik inshooti ishga tushirildi



Qo'shrabot tumanidagi Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga qarashli Janubiy kon boshqarmasi konlari maydonida "Zarmitan konining quyi gorizontlarini o'zlashtirish" investitsion loyihasi amalga oshirildi.

Diametri 6,5 metr bo'lgan Skipli stvol chuchurligi 1000 metraga yetkazildi va bu O'zbekiston kon-metallurgiya sanoati tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. O'zining ilg'or muhandislik-qurilish, innovatsiya va raqamli yechimlari bilan noyob shaxta stvoli hisoblanadi.

Stvol ishga tushirilishi ma'dan tashish unumdonorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish bilan birga 90 ta yangi ish o'rni va korxona uchun qo'shimcha qiymat yaratish imkonini berdi. Undan keladigan yillik iqtisodiy samaradorlik 19,2 milliard so'mga baholanmoqda.

- Skipli stvol - yer osti konlariidan qazib olingan ma'danni yer yuziga ko'tarish uchun maxsus loyihalashtrilgan vertikal yoki qo'sha shaxta qudug'i, - deydi "Navoiy kon-metallurgiya kombinat" AJ bosh muhandisi Atabek Ravshanov. - Uning asosiy vazifasi yukni tez, samarali va xavfsiz tashishdan iborat. "Zarmitan" konining turli yerosti gorizontlarida qazib olinaygan tog' jinslari endi 240-gorizontda yig'ilib, ma'dan markazlashgan holda Skipli stvol orqali yer yuzasiga tashib chiqariladi. Uning foydalaniшha topshirilishi nafaqat texnologik yuksalish, balki respublikamiz kon-metallurgiya sanoatida muhim zamonaliviy muhandislik namunasidir.

Ushbu qurilmalar har jihatdan xavfsiz va tejamkor. Misol uchun, 60 tonna tog' jinslari 3 ta avtoq'dargichda yer yuzasiga olib chiqishga uch soat vaqt, shu bilan bir qatorda, yerosti texnikalari, yoqilg'i-moylash materiallari va boshqa xarajatlarni talab etilgan bo'lsa, Skipli stvolga o'rnatalgan 20 tonnalik bunkerlar orqali 60 tonna tog' jinslari yer yuzasiga olib chiqishga atiqi 8-10 daqiga vaqt ketadi. Yana bu qurilma elektr energiyasi hisobiga ishlagni bois, ekologik jihatdan atrof-muhitga mutlaq salbiy ta'siri yo'q. Natijada vaqt sarfi va yoqilg'i materiallari 60-70 foizgacha iqtisod qilinadi.

Shaxta stvollarini zamonaliviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida to'liq raqamlashtirilgan. Butun faoliyati markaziy operatorlik puli orgali boshqariladi. Ular yordamish ish jarayonlari doimiy kuzatilib, yuk tashish aniq hisob-kitob orgali monitoring qilib boriladi. Bundan tashqari, oqohlantiruvchi signallar orqali har qanday holatning oldini olish imkoniyati ham mavjud.

Skipi stvoni ishga tushirishga bag'ishlangan tadbirda tog'-kon sanoati va geolojiya vaziri o'rinosi U.Yusupov, "Navoiy kon-metallurgiya kombinat" AJ boshqaruvi raisi - bosh direktori Q.Sanaqulov, Samarqand viloyati hokimligi mas'ullari va shaxta qurilishida ishtirok etgan Chexiya Respublikasining "Mine Construction Alliance s.r.o." kompaniyasi mutaxassislari ishtirok etdi.

**Ўзбекистон Республикаси  
Президентининг Виртуал ва Халқ  
қабулхонасига жорий йилнинг  
ўтган вақтида вилоятимиз  
аҳолисидан 29276 та мурожаат  
таси ижобий ҳал этилди. Бироқ  
масала фақатгина мурожаатни  
«ёпиш»да эмас. Уларнинг  
мазмунини таҳлил қылсан, қайси  
соҳа ёки худудда муаммолар  
борлигини ҳам кўриш мумкин.**

Жумладан, юқоридаги мурожаатлар бўйича кўп ижро иши алимент ва қарз ундиришига (3357 та) оид. Ундан кейинги масалалар ижтимоий таъминот (3154 та), хизматчилик фаолияти ва хатти-харакатлari (2749 та), таълим учреждениларни таъминотлаштириш (2744 та), хукуқбузарликлар ҳақидаги хабарлар ва улар бўйича иш юритишга оид муаммолар (2364 та), газ (1648 та), электр энергияси таъминоти (1169 та), моддий ёрдам ва ҳомийлик (1072 та) билан боғлиқидir.

Бударавда вилоят аҳолисидан жами 335 та жамоавий характердаги мурожаатлар ҳам бўлган. Энг кўп жамоавий мурожаатлар Самарқанд шаҳrida - 61 та қайд этилган. Пайарида 54 тани, Ургутda 36 тани ва Паст Дарғомda 27 тани ташкил килилоқда. Улар асосан иш ҳақини тўлаш билан боғлиқ муаммолар (28 та), «Очиқ бюджет» дастури (20 та), электр тармоқлari обьектларини куриш, таъмирлаш, ўзgartirishi (18 та), маҳалланинг ички йўллari (12 та), ер майдонини ўзбо-

## Мурожаатлар муаммоли нуқтани фош қилади

шимчалик билан эгаллаб олиш ва қонунга зид фойдаланиши (11 ta)ga oidi.

Қайд этиш жоизки, ҳисобот даврида давлат хизматilari hatti-harakatlari ustidan 2748 ta shioyta keliib tushgan. Eng k'up shioyta sohliqini saklasa sohaxi b'uyicha - 283 ta. Maҳalla xodimlari hatti-harakatlari yozasidan 261 ta, makhburjiy ikro brosori xodimlari faoliyatlari b'uyicha 256 ta, bank xodimlari haqida 190 ta, profilaktika inspektori b'uyicha 177 ta, ta'lim sohaxi xodimlari xarakatlari yozasidan 163 ta hamda sudsaylar xarakatlari ustidan 133 ta shioyta b'uyicha. Xududlar kesiimida taҳлил қилинса, Samarqand shahridan 622 ta, Past Darғom tumaniдан 321 ta, Urgutdan 203 ta, Paxtachidan 170 ta, Ishitxondan 161 ta va Pайariқdan 151 ta shioyta b'uyilagini k'uriш mumkin.

Murожаатlар ичida takrorilayri xam k'up. Utgan vaqtida ular 4071 tani tashkil qildi. Bu k'upcikti utgan yillning mos davriga nisbatan 1922 taga, ya'ni 32 foiziga kamaygan b'ulsada, fuqarolari wa pasport-viza, jazoni ijro etish faoliyatlari, xalqaro xukuz masalalari, uyi-jay bilan tashqilash va raҳbarlar qabulini tashqilashda takroriy murожаатlар soni ortgan. Bunda ya Na markanda shaxsi 524 ta takroriy murожаат bilan aжralib turibdi. Unidan keyinги ўринlarda Past Darғom (439 ta), Kattakўrg'on (357 ta), Pайariқ (316 ta), Paxtachi (295 ta)

va Urgut tumani (273 ta) turadi.

Agar umumiy murожаатlari maҳallalalar darajasida k'uriб чиксан, Samarqand shahridagi Korasuv maҳallasining 77 naфар fuqarosi xukuzbuzarliklari haqida xabar va ular b'uyicha ish yuritiшha oind muammolarni xizmatchilar hatti-harakatlari bilan bog'lik masalalarda 106 ta murожаат yillaglan. Okadari tumanidagi Янгиобод maҳallasining 71 naфar fuqarosi esa bandlik, ikro ishi, aliment va қарз undirishi yuналишида 116 ta murожаат yoborgan. Pайariқ tumanidagi Dus'tlik maҳallasiida taҳshabusi budget, xukuzbuzarliklari haqida xabar va ular b'uyicha ish yuritiшha oind muammolarni k'up. Xududdan shu b'uyicha 76 ta murожаат b'ulgan. K'upshabot tumanining Шавона maҳallasi aҳolisiidan gaz taъminotini va ijtimoiy taъminotga oind masalalardan 81 ta murожаат bar.

Aйни taҳlliplar acoсида tegishli joy va давлат idoralarini faoliyatiда ўрганиш ishlar olib boriliб, muammolarni bartaraф etish etilmoska. Lekin muammolarni bartaraф etish emas, odlini olish muхum. Raҳbarlar buni xisobga olishi va vazifasiga masbuliyat bilan ёндашибi zarur.

**Маматжон ТУРДИЕВ,  
Президентнинг вилоятдаги  
Халқ қабулхонаси мудири.**

**O'zbek xalq  
maqoli**

Ish seni  
yengmasin,  
sen ishni  
yeng

# Sun'iy intellekt dan foydalanish tartibga solinadi (mi?)

**Aslida bu texnologiya qiziq emasdek, u bizning hayotimizga kirib kelma-gan-u hali bu haqda bosh qotirish noo'rindek tuyuladi. Butun dunyoda u kirib bormayotgan soha qolmayapti, aniqrog'i, qariyb barcha tarmoq va tizimda ishonchli yordamchiga aylanmoqda.**

Ammo do ppini boshdan olib o'ylab ko'rila-sa, sun'iy intellekt bilan bog'liq munosa-batlarni tartibga solish zarurati ham yuzaga kelmoqda. Negaki allaqachon hamyurtlarimiz undan jabr ko'rmoqda, unga asoslangan fribgarliklar qurboni bo'lmoxda. Milliarder Alisher Usmonov pul tarqatayotgani haqidagi sun'iy idrok yordamida yaratilgan video xabar hali ko'pchilikning yodidani chiqmagan bo'lsa kerak. Yoki respublikamizning boshqa taniqli shaxslarining originalidan farq qilmaydigan "chiqishlari" internetda tarqagan-chi?

Shu sabab Oliy Majlis Qonunchilik palata-sining navbatdagi yalpi majlisida sun'iy intel-lekti qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi birinchи o'qishda qabul qilindi.

Quyi palata matbuot xizmati qayd qil-ishicha, qonun loyihasi bilan sun'iy intellekti orqali yaratilgan axborotni markirovkalash, shaxsga doir ma'lumotlarga noqonuniy ishlov berganlarni 37,5 million so'mgacha jarimaga tortish taklif etilmoqda.

Deputatlar bugungi kunda sun'iy intellekti dan foydalanish va ularni moliyalashtirish hajmi oshib borayotganini qayd etgan. Misol uchun, 2023-yilda butun dunyoda sun'iy intellekt sohasiga 154 milliard dollar investitsiya jabol qilingan, o'tgan yili bu ko'rsatkich ikki barobar oshgan. 2030-yilga kelib, investitsiyalar hajmi 10 barobar oshishi proqnoz qilinmoqda.

Butun dunyo, shu jumladan, O'zbekistonda ham sun'iy intellekt ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga, inson huquqlari va shaxsiy ma'lumotlar dax-sizligiga tahdidlarni yuzaga keltira boshlagani alohida e'tibor qaratadigan jihat sifatida qayd qilinmoqda. Xususan, 2024-yilda dunyoda sun'iy intellektidan foydalanib, taniqli shaxslarning foto, video va audio yozuvlarini sotxalashtirish 50 barobar oshgan. O'zbekistonda internet orqali 2023-yilda 1129 ta, 2024-yilda esa 3553 ta sun'iy intellekt yordamida ishlov berilgan noqonuniy materiallarni targatilgan. Aholi ishonchiga kirish uchun o'zga shaxslarning qiyofasi va ovozidan foydalanilgan.

Shu bois qonun loyihasida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda fuqarolar huquq va qonuniy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan normalarni belgilash ko'zda tutilmoxda. Aniqrog'i, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilmoqda.

Xususan, unda "sun'iy intellekt" tushun-chasiga ta'rif berilib, sohada davlat siyosati ning asosiy yo'naliishlari va maxsus vakolatlari organ vazifalari belgilanmoqda. Shuningdek,

qonun loyihasiga axborot resurslarini yaratish hamda axborot tizimlari ishida sun'iy intellekti dan foydalanishning umumiyy qoidalari kiritilgan.

Loyihada sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda yaratilgan axborot resurslariga markirovka qo'yish talabi belgilanyapti. Shu bilan birga, sun'iy intellekt orqali qonunga xiлоf ravishda shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish va ularni OAV, ijtimoiy tarmoqlarda taraqitishga yo'l o'qymaslik majburiyati kiritilmoqda. Bu talab bajarilmasa, ma'muriy javobgarlik belgilash taklif qilinmoqda.

Aniqlik kiritilishicha, ushbu qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 46-moddasiga 2-qo'shimcha kiritilmoqda.

Masalan, bu sun'iy intellektidan foydalanib, shaxsga doir ma'lumotlarga noqonuniy ishlov bergen va tarqatgan shaxslarning ish qurollari musodara qilinishini, 15 sutkagacha ma'muriy qamoqqa olish yoki bazaviy hisoblash miqdorining 50 barvari (18,75 million so'm) dan 100 barvari (37,5 million so'm) gacha miqdorda jarima solishni nazarda tutadi.

Ta'kidlanishicha, qonun loyihasi taqiqlash, nazorat qilish yoki cheklashga emas, balki huquqiy maydonaga sun'iy intellekt tushun-chasini kiritib, o'yinning asosiy qoidalari va asosiy subyektlarini aniqlashga qaratilgan.

Loyihani ishlabi chiqishda AQSh, Kanada, Yevropa, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya va MDH davlatlari tajribasi o'rganilgan. Unda sun'iy intellekt orqali yaratilgan axborot resurslari va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydig'an axborot tizimlari inson, uning hayoti, sog'lig'i, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa huquqlarini buzmasligiga oid talab kiritiladi. Insonning huquq va erkinligiga aloqador qarorlarni qabul qilishda faqat sun'iy intellekt orqali yaratilgan axborot resurslari va sun'iy intellektida ishlovchi tizimlar xulosasiga tayaniqlasligi belgilanmoqda.

Majlisda deputatlar qonun loyihasining mazmun-mohiyati va ahamiyatiga to'xtalib, uni takomillashtirish, puxta holatga keltirish bo'yicha o'z fikr-mulohazalari hamda takliflari bildirgan.

Yodigizda bo'lsa, 7-aprel kuni Toshkentda o'tkazilan Parlamentlararo ittifoqning 150-yubiley Assambleyasida nutq so'zlagan davlatimiz rahbari ittifoq doirasida sun'iy intellekt foydalanish etikasini ishlab chiqishni taklif qilganda.

Xulosa shuki, qonun ijodkorlarimiz davronda ortda qolayotgani yo'q, balki ijrosi sistroqqidir. Yana kim bilsin?

Y.MARQAYEV tayyorladi.

Ma'muriy agentligining ihma.uz yoki Davlat xizmatlari portalining my.gov sayti orqali onlaysiz ariza beradi, - deydi Kat-taqo'r'ing'um tumanini Chig'ato'y mahallasini ijtimoiy xodimi Ozoda Nasimova. - Oilaning kam ta'minlangani tasdiqlansa, o'sha oilaga avtomatik tarzda bolalar nafaqasi chiqadi. Bolani bog'chaga imtioy asosida qo'yishni istovchi kam ta'minlangan oilalar bizdan ma'lumotnomasi olib ketadi. Shu paytacha o'ndan ortiq oila farzandlariga kam ta'minlanganligi haqida ma'lumotnomasi berdim. Biz bergan ma'lumotnomasi yoki Davlat xizmatlari markazi tomonidan olingan ma'lumotnomasi asosida bolan bog'chaga imtioyli qabul qilinadi.

Bugun viloyatimizda 764 ta davlat, 143 ta davlat-xususiy sherikchilik asosidagi, 62 ta nodavlat (xususiy), 3121 ta oilaviy bog'chalar faoliyat olib boryapti. 2017-yilda viloyatda atigi 564 ta bolalar bog'chasi mavjud bo'lgan bo'lsa, ayni kunlarda ularning soni 4090 tani tashkil etmoqda.

Xo'sh, davlatimiz tomonidan yaratilgan layotgan bunday imkoniyatlardan bugun barcha birdekk foydalanyapti? Kam ta'minlangan oila farzandlari ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari qamrab olinyapti?

Tashkilotimizga ijtimoiy himoyaga muh-jot oilalarning 3 nafr farzandi jaib etilgan bo'lib, ular ota-onasi badal to'lovlardan ozod qilingan, - deydi Samarcand tumani-dagi 35-maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori Bahora Arziqulova.

Darhaqiqat, bugun kam ta'minlangan oila farzandlariga davlat tomonidan imtioyli asosida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish tartibi belgilangan. Xo'sh, imtioy asosida maktabgacha ta'lim tashkilotiga joylashtirishning tartibi qanday?

- Buning uchun ota-onasi ijtimoiy himoya milliy agentligining ihma.uz yoki Davlat xizmatlari portalining my.gov sayti orqali onlaysiz ariza beradi, - deydi Kata-raqo'r'ing'um tumanini Chig'ato'y mahallasini ijtimoiy xodimi Ozoda Nasimova. - Oilaning kam ta'minlangani tasdiqlansa, o'sha oilaga avtomatik tarzda bolalar nafaqasi chiqadi. Bolani bog'chaga imtioy asosida qo'yishni istovchi kam ta'minlangan oilalar bizdan ma'lumotnomasi olib ketadi. Shu paytacha o'ndan ortiq oila farzandlariga kam ta'minlanganligi haqida ma'lumotnomasi berdim. Biz bergan ma'lumotnomasi yoki Davlat xizmatlari markazi tomonidan olingan ma'lumotnomasi asosida bolan bog'chaga imtioyli qabul qilinadi.

Fakt va raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kunda viloyatda 370 883 nafr maktabgacha yoshdagidagi bolalar mayjud bo'lib, ularning 267 273 nafr yoki 72,1 foizi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingen. Shulardan 5 ming 68 nafrasi davlat maktabgacha

## Besh mingdan ortiq bola bog'chaga imtiyozli qabul qilingan



ta'lim tashkilotlari imtiyozli qabul qilin-gan, ya'nii badal to'lovidan ozod etilgan. Bu Prezidentimizning 2020-yil 4-avgust-dagi "Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdimi etish tarbiy-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Dasturga asosan, barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarga bir xil mavzuda mashg'ulotlar olib boriladi. Ko'pincha mavzular fasllarga qarab tu-ziladi. Masalan, bahor faslda bolalarga unda nishonlanadigan bayramlar haqida mashg'ulot tashkil etiladi va bu bolaning ongi, dunyoqarashining shaklanishida muhimdir. Mart oyida "Go'zal bahor" mavzusi tanlangan bo'lib, mavzu atro-fida xotin-qizlari kuni, mavsumiy o'zgarishlar, Navro'z bayrami va hasharotlar haqida mashg'ulotlar tashkil etiladi?

Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi, bolalarga bog'chada qanday mashg'ulotlar otiladi? Davlat bog'chasi da alohida, oilaviy bolalar bog'chasida alohida mashg'ulotlar tashkil etiladi? - Respublikamiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayoni, faoliyatlar, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga asoslangan holda olib boriladi, - deydi Samarcand tumani-dagi 35-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv jarayoni, faoliyatlar, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga asoslangan holda olib boriladi, - deydi Samarcand tumani-dagi 35-davlat maktabgacha ta'lim sohasida xizmatlari bo'satuvchi nodavlat MTTlari da, ta'lim va tarbiyaning muqobil shakllarida, mehribonlik uylari maktabgacha guruhalarda, monitoring va uzluksizlikni



## Mahdumi A'zam ziyoratgohi obod bo'ladi

Oqdaryo tumani Dahbed sha-harchasidagi Mahdumi A'zam ziyorat-gohi 1618-yilda bunyod etilgan.

Hazrat Mahdumi A'zamning asl ismi Said Ahmad, otasining ismi Said Jaloliddin bo'lib, Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning 21-avlodni bo'lgan. Mahdumi A'zam - kishiga berilgan unvon. Hazrat 1461-yilda Namanganning Kosonsoyida tug'ilgan. Yoshligida vodiylar Toshkentda ma-drasalarda ta'lim olib, Samarcandga keladi va Xo'ja Ahrori Valiyga shogird tushadi.

U kishining aynan Dahbedda yashab qolishlariga sabab bu hudud Oqdaryo va Qoradaryo oralig'ida joylashgani, dehqonchilik qilish uchun qulay bo'lganidir. Naqshbandiya ta'limotida bir shior bor: "Dast ba koru dil ba yor", ya'nii "Qo'ling mehnatda, diling Alloha bo'lsin".

Hazrat shunga amal qilgan holda dehqonchilik bilan ham shug'ullan-gan. Aniqrog'i, dehqonlarning piri bo'lgan. Dehqonchilikka oidi 30 dan ziyyod asarlar ham yaratgan. Bu zot umrining oxirigacha mazkur Dahbed qo'rg'onida yashab, ijod qilgan va 1562-yilda vafot etgan.

Mahdumi A'zam yirik diniy va siyosiy arbob, naqshbandiya tariqatining rahnomasini va nazariyotchilaridan birla edi. 30 dan ziyyod mamlakat pod-sholari bu zotga murid, ya'nii shogird bo'lgan ekan. Ularning 14 nafrasi o'z vasiyatlariga binoan, shu maskandagi dalmaga dafn qilingan. Bu qabrlar orasida Samarcand hokimi bo'lgan

Bahodir Yalango'shni ham bor.

Hazrat Mahdumi A'zam nomiga bunyod etilgan qadamjodagi masjid va maqbara aynan Bahodir Ya-langto'sh tomonidan qurilgan.

Ziyoratgoh markazidagi chinor qariyb besh yuz yillik tarixiga ega. Uni Mahdumi A'zam hazratlari bu yerga ko'chib kelgan paytda, 1528-yilda ekkan.

Bir paytlar e'tiborsiz qolgan bu muqaddas maskan Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin obod qilindi. Davlatimiz rahbari tashab-busi bilan joriy yilda bu ziyoratgoh hududida yanada ulkan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilishi rejalashtirildi. Buning uchun 25 million dollar miqdorida mablag' surflanishi belgilandi.

Ziyoratchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida dalmaga kirish-chiqliq yo'llari kengaytiriladi, qo'shimcha avyon vazifalariga turargohi quriladi.

Hududdagi qadimiy masjid ham ta'mirlanib, yon va orqa tomonida avyonlar barpo etiladi. Bugungi kunda masjid o'z ichiga 400 kishini sig'dira olsa, qo'shimcha avyonlar quriladi. O'sida 2 ming nafr namozxonib ibodat qilish imkoniga ega bo'ladi. Ziyoratgoh hududi va atrofida ko'kalanzor-lashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Nasrullo ISLOMOV,  
Oqdaryo tumani bosh imom-xatibi.

## Tomorqadagi baraka

Oqdaryo tumani Miyonqol mahallasida yashovchi Karimovlar xonadoni o'z mehnati bilan daromadini oshirayotgan oilalar sirasiga kiradi.



Xonadon bekasi Feruza Rahimova tumandagi 11-umumta'lim maktabida o'qituvchilik qiladi. Shu bilan birga, bo'sh vaqtida turli xil mato, qog'oz va sovunlardan gul yasab, elga tortiq qilmoqda.

- Ko'p yillardan buyon odamlarni xushnud etib, yan-gicha uslubda gullar yasashni yo'iga qo'ygshanman, - deydi Feruza opa. - Gul do'konni ochishni orzu qilardim. Tuman-mizda floristika, ya'nii gul va

o'simliklardan turli kompozitsiya, intererlarni bezash bilan shug'ullanuvchilar ko'p emas. Ayrimlar ularni rassomlarga qiyos qilishadi, lekin ular rang-tasvir bo'yoqlar o'rniqga rangli, tabiiy gul butoqlari, yashil o'simliklar bilan san'at asarlari yaratishadi. Bu sohada ish boshlaganimga ko'p bo'Imagan bo'lsa-da, asta-sekin o'rganib boryapman. Asosiyisi, o'z qo'lalarim bilan go'zalik yaratayotganidan mammunman. Internet orqali savdo yuritish menqa qulay bo'lyapti. Tumanning chekka bir qishlog'iida gul do'kon oshish imkonisini isbotladim.

Feruza opaning gulga qiziqishi onasidan o'tgan. Chunki onasi ham o'z hovlisida gul parvarishlar edi. Qo'ni-qo'shnilarga bayram va to'ylarda aijib gullaridan guldastalar yasab berardi. Matodan gul yasashni ham onasidan o'rgangan. Turli atir sovnurlardan gul yasashni esa internet orqali o'rgangan. Juda chiroli va uzoq vaqt saqlanib turadigan bu gullarni avval du-gonalrim va yaqinlarimga yasab berardi. Keyinchalik ko'pchilikka

manzur bo'lgach, onlaysiz do'kon orqali sotuvg'a chiqara boshladi. Xonadonini ajoyib san'at asarlari bilan bezatishni istovchilar soni ko'payib bormoqda. Ularning o'zi Feruza opani izlab kelyapti. Feruza Rahimova uyida o'tirib, har oya 7-8 million so'm daromad qilmoqda.

Oila boshlig'i Alisher aka bog'dorchilik, dehqonchilik va asalarichilishi bilan shug'ullanadi. Tomorqasidagi 1 soxitli issiqxonasi yetishtirilgan limon va mandarindan yaxshigina daromad oladi. Issiqxonaning jo'yak oralariga bodring, pomidor, ko'kat hamda pavloniya daraxti ko'chatlari yetishtiriladi.

Alisher Karimov olti yildan buyon "Pavloniya Samarcand" MChJ korxonasi tashkil etib, 60 soxit maydonida plantasiyati tashkil qilgan. Bu yerda 1000' tupga yaqin pavloniya daraxti ko'kka bo'y cho'zmoqda.

Oila a'zolari o'tgan yili mavjud 71 ta asalari q

Dunyoda ilm-fan, texnologiya va madaniyatlar keskin sur'atlar bilan rivojlansayotgan bir paytda chet tilini o'rghanish nafaqt bilimli inson, balki zamoniav shaxs bo'l shishing ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Har bir til – bu yangi dunyo, yangi fikrlar olami. Ayniqsa, ingliz, nemis, fransuz, xitoy yoki arab tillari bugungi global muhitda imkoniyatlар eshigini ochuvchi kalitdir.

## Kelajak uchun eng yaxshi sarmoya

Yurtimizda ham so'ngi yillarda xorijiy tillarni o'rghanishga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada oshdi. Maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab olyi o'quv yurtlarigacha chet tillarini o'qitish sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan tashkil etilgan "ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish" dasturlari, xorijiy til o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari va xalqaro til sertifikatlarining joriy etilishi bunga yaqqol misoldir.

Institutimizning Payariq filiali xorijiy tillar fakultetida 300 nafaridan ortiq talabingizni va adabiyoti, rus filologiyasi mutaxassisliklari bo'yicha tahsil olishadi. Ularning 200 nafari xalqaro til sertifikatlari ni qo'lgan kiritgan. Jumladan, F.Zokirova ilm-fan va innovatsion g'oyalari bo'yicha yil talabasi bo'lgan bo'sha U.Abduhakimova "Institut rektori" stipendiysi sohibasi bo'ldi.

Talabalarimiz xorijiy tillarni o'rghanish bilan bir qatorda sport va fan to'garaklarida faoliyat qatnashib kelmoqda. Haftaning chorshanba kuni

talabalar uchun mustaqil izlanish kuni deb e'lon qilin-gan va shu kuni ular ustozlari yordamida mustaqil izlanishlar olib borishadi.

Chet tillarini bilish faqat tarjima qilishdan iborat emas, balki boshqa xalqlarning hayot tarzi, madaniyati hamda fikrlashini tushunishga ham yordam beradi. Turli sohalar da o'zaro tajriba almashish imkonini beradi. Masalan, yoshlarimiz xorijiy tillarni o'rgangan holda, xorijagi grant dasturlarida qatnashmoqda, ilmiy maqolalar chop etmoqda, xorijiy kompaniyalarda ishlamoqda.

Farzandlari kelajagini o'ylagan ota-onalar ularga yoshligidan til o'rghanishlari uchun imkoniyat yaratib berishsa, ma'qul bo'lardi. Yoshlarimiz kitob o'qib, mobil ilovalardan foydalanan, so'z boyliklarini oshirishlari kerak. Chunki ilm va til o'rghanishga sarflangan mablag' kelajak uchun eng to'g'ri sarmoya hisoblanadi.

**Komila MAHMUDOVA,  
Farrux XOLBOYEV,  
Samarqand davlat chet  
tillar instituti o'qituvchilari.**

**Шундай инсонлар бўладики, улар орамизда яшамаса ҳам қалбимизда яшайверади. Уларни шунчаки унтиги юбориб бўлмайди. География фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси фан арбоби Лапас Алибеков ҳам шундай инсонлардан эди.**

L.Alibekov 1938 yilda Жиззах вилояти Зарбод туманинг Оқбулоқ кишлогоғи туғилган. Тоғнинг фарзанди эмасми, ёшлигидан тоғ ва текислик, воҳа ва водийлар, чўл ва сарҳоларга, географияга ошно бўйли улгайди. Ўрта мактабни тамомлаған, 1955 yilda Самарқанд давлат университети биология-география факультетининг география бўлимiga ўқишига кирди. 1961 yilda университетни тутагиб, табии география кафедрасига асистентликка қабул қилинди. Кўп ўт-

май, Украинаning Лъвов давлат университети профессори Каленик Геренчук раҳбарлигига "Зарафшон топлари ва ёндош текисликларинг ландшафтлари ва ер типлари" мавzuсидаги номзодлик диссертациясини муваффақиятли химоя килди. Сўнгра Самарқандга қайтиб, ўзи ўқиган факультетда илмий ва педагогик фаoliyatini davom ettiridi.

Москва давлат университети профессори Николай Гвоздецкий раҳбарлигига "Тоғ ва текислик ландшафтларининг ўзаро таъсири (Ўрта Осиё мисолида)" мавzuсидаги докторлик илмий тадқиқотини олиб борди ва 1988 yilda докторлик диссертациясини химоя килди. Лапас Алибеков ўз тадқиқотлари натижасида биринчи бўйли ўрта Осиё тоғ ва текислик ландшафтлари ўртасидаги ўзаро табии географик таъсири механизmlari, тадрижий боғлиқлик ҳамда алоқалари, уларнинг исон хўжалик фаoliyati таъсирида ўзгариши борасидаги қонуниятларни асослади.

Olim tomonidan Ўрта Осиё табиий географик ўлкасига хос бўйлан таъсилик жуфтлигига нисбатан "геопара", яни "кўшалоқ комплекслар", деган тушунма иммий мумалага киритildi. Шунингдек, Ўрта Осиё миintaқаси мисолида тоғ ва текислик ўртасида модда ва тирик организмларнинг айланни ўрганилди.

Устоз ўзининг иммий фаoliyatiда Ўрта Осиё, жумладан, Ўзбекистон таъбиати ва ундан самарали фойдаланиш, муҳофиза килиш борасидаги масалаларни кўтарди. 2002-2011 йилларда НАТОнинг "Арид миintaқалarda чўлланиш жараёни" дастuriда халқaro экспрет сифатida фаoliyat olib bordi. Лапас Алибековнинг 400 dan ortiq immий мақолa va тезислari respublikamiz, kolaverza, dunenning turli mamalakatlariдаги нуфузli иммий журнallarda нашр этилган. Олия им-фана гўшган хиссаси ва кадрлар тайёрлашдаги хизmatlari учун 2000 yilda "Ўзбекистон Республикаси фан арбоби" узвони билан тақdirlanadi.



Лапас Алибеков 2020 yild 82 ёшида olamdan utdi. Ustozimizning ёркин хотirasini shogirdlar qalbida yashadi.

**D. ЁРМАТОВА,**  
**Самарқанд давлат университети география ва экология факультети доценти.**  
**К.ДАВРОНОВ,**  
**кatta ўқитувчи.**

## Уруш қатнашчилариning жасорати унтилмайди

**Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабага 80 йил тўлди. Инсоният бошига тушган энг қонли бу урушнинг асорати ҳали ҳамон унтилган эмас. Чунки собиқ иттифоқ мамлакатларининг деялии ҳар бир оиласидан кимидир урушдан қайтмаган...**

Жумладан, Ўзбекистон ҳалқи ҳам жаҳон майдонларида ва front ortida ulkak jašasorat va matonat kўrsatib, faishizm ustidan қозонilgan ғalabaga munosib xissa kўşdi. Urušda қatnashgan 1,5 milliondan ortiq ўzbekistonlikning yuridik millili-

ondan ortigi ҳalok bўldi, 133 miniga яхни bedarak йўқoldi, 60 mingdan ziёdi ногирон bўlib қaytdi. Kўplab ҳамyortlarimiz kўksa tula ordene va medallar bilan Vatanha қaytiib, mehnat bilan shugullandi.

Kattakўrgonlik Ibrohim Odi-



lov urusdan omon қaytgan insonlardan biri edi. Йигirma ёшли Ibrohim mehnat faoliyatini

1930 yilda Каттакўргон ёғ-мой комбинatida madaniy-oқartuv ishlari bўйича mudir vazifasidan boshla. 1937-1939 йиллarda shahardagi muallimlar taъrash bilim yurtida taҳsил olish barobarida shahar halq maorifi bўlimida uslubiyat xonasasi mudirligini bajaradi.

1943 yilda kўngilililar safida frontga otlandi.

Gvardiyachi leitenant Ibrohim Odirov vizzod komandiri vazifasida Boltiқubuy mamalakatlarining qator shaharlari va aholi punktlarini, Polsha poitxatasi Varsawani dushmanidan ozed kiliishiда қaxramonlik kўrsatib, "Қизил ўлдуз" ҳамda I darakali "Ulug' Vatan urusi" ordeni va qator jangovar meodalari bilan taъrirlanadi.

Қaxramon zabit 1946 yilda

Kattakўrgonga қaytiib, ўзи taъlim oлган pedagogika bilim yurtida geografiya fani ўkituvchisi vazifasida ishladi. 1947 yilda banor xodimi Rозаҳон bilan turmush kurdidi.

I.Odilov Kattakўrgon tumani haq maorifi bўlimi mudir, tuman imrak kўymitsasi raissi lavozimlariда mehnat kildi.

Ibrohim aka Rозаҳон bilan ўn nafr farzandlari kamolga etkazib, shaҳarning энг намунали оиласи sifatida tanindlidi.

Bugun kunda қaxramon janchi Ibrohim Odilov ҳам, Rоза она ҳам oрамida йўқ. Ammo fahism ustidan қозонilgan galabaga kўshgan xissasi, tinch va erkin jašamisiga imkon bergan учун улардан minnatdormiz, хотirasini oldida taъzimdamiz.

**Ҳамидулло ХУШВАҚТОВ.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lонlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

### QUYIDAGI LAVOZIMLARGA SHARTNOMA ASOSIDA TANLOV E'LON QILADI:



1. Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasi professori – 1 nafar, fan doktori, professor;

2. O'zbek tili, jurnalistik va kompyuter lingvistikasi kafedrasi professori – 1 nafar, fan doktori, professor;

3. Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi professori – 1 nafar, fan doktori, professor;

4. Qiyoziy adabiyotshunoslik kafedrasi dotsenti – 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;

5. Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi dotsenti – 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;

6. Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasi dotsenti – 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;

7. Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti – 1 nafar, ilmiy darajasiz dotsent;

8. Ikkinci chet tillar kafedrasi dotsenti – 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;

9. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodika kafedrasi dotsenti – 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;

10. Ingliz filologiyasi kafedrasi dotsenti – 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;

11. Ingliz tili nazariyasi kafedrasi dotsenti – 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;

12. Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti – 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent.

**Tanlova qatnashish uchun quyidagi hujjalarni taqdim etiladi:**

1. Rektor nomiga ariza;

2. Ma'lumoti to'g'risidagi diplomlardan nusxa;

3. Ilmiy ishlar ro'yxati (3.4 shakl tasdiqlangan holda);

4. Pasport nusxasi;

5. Ma'lumotnomasi (obyektivka).

**Hujjalarni e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.**

**Manzil: Samarqand shahar Gagarin ko'chasi 43-uy. Institut xodimlar bo'limi. Murojaat uchun telefon: +99866-234-29-36.**

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarkand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravona notarial idorasida marhum Artikov Sarttoga (2005-yil 24-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Saidova Zarina Xisravona notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Fatkulina Firuza Rufatovnaga (2024-yil 13-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

\*\*\*

Toyoq tumanida xizmat safaridagi Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Rasulov Xalil Jalolovichga (2024-yil 11-sentyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumanı Saroy ko'chasi, 15-uy.**

\*\*\*

Toyoq tumanida xizmat safaridagi Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Bakriyev Najim Aslyevichga (2020-yil 5-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Toyoq tumanı Beruniy ko'chasi.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Umarov Saidjanga (2020-yil 13-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Kaysova Gulnora Kurbonaliyevnaga (2011-yil 26-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 157-uy.**

\*\*\*

